

## Linguistic analysis based on the frequency dictionary of the epics "Malikai Ayyor", "Kuntug'mish", "Orzigul"

Dilafruz UNAROVA<sup>1</sup>

Academic Lyceum of Samarkand State Foreign Language Institute

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

#### Keywords:

Interface of the corpus of the epic poems "Malikayi ayyor", "Orzigul", "Kuntug'mish" created in the Sketch Engine corpus manager, size of the corpus of the epic poems "Malikayi ayyor", "Orzigul", "Kuntug'mish" created in the Sketch Engine corpus manager, size of the corpus of the epic poems "Malikayi ayyor", "Orzigul", "Kuntug'mish" created in the corpus manager specially created for Uzbek poetic texts, active part of the keywords of the epic poem "Malikayi ayyor", active part of the keywords of the epic poem "Kuntug'mish", active part of the keywords of the epic poem "Orzigul".

### ABSTRACT

This article discusses the linguostatistical analysis based on the frequency dictionary of the epics "Malikayi ayyor", "Kuntug'mish", "Orzigul". In addition, information is provided on the creation of a frequency dictionary based on the WordSmith Tool program and its capabilities. Issues such as the use of the "Keywords" function to help identify keywords in this corpus are studied. The most active words in the epic "Malikayi ayyor", words with high frequency in the epic "Orzigul", and active parts of the keywords in the epic "Kuntug'mish" are studied. This article also provides information on the work carried out using the Sketch Engine corpus manager.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp53-64>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Teacher, Academic Lyceum of Samarkand State Foreign Language Institute. E-mail: dilafruzunarova1@gmail.com

## “Malikai ayyor”, “Kuntug‘mish”, “Orzigul” dostonlari chastotali lug‘ati asosida lingvostatistik tahlil

### ANNOTATSIYA

**Kalit so‘zlar:**

Sketch Engine korpus menejerida yaratilgan “Malikai ayyor”, “Orzigul”, “Kuntug‘mish” dostonlari korpusi interfeysi, Sketch Engine korpus menejerida yaratilgan “Malikai ayyor”, “Orzigul”, “Kuntug‘mish” dostonlari korpusi hajmi, O‘zbek tili poetik matnlari uchun maxsus yaratilgan korpus menejerida yaratilgan “Malikai ayyor”, “Orzigul”, “Kuntug‘mish” dostonlari korpusi hajmi, “Malikai ayyor” dostoni kalit so‘zlari faol qismi, “Kuntug‘mish” dostoni kalit so‘zlari faol qismi, “Orzigul” dostoni kalit so‘zlari faol qismi.

Ushbu maqolada “Malikai ayyor”, “Kuntug‘mish”, “Orzigul” dostonlari chastotali lug‘ati asosida lingvostatistik tahlil xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, WordSmith Tool dasturi asosida chastotali lug‘at yaratish hamda uning imkoniyatlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. “Keywords” funksiyasi yordamida mazkur korpusdagi kalit so‘zlarni aniqlashda yordam berishi kabi masalalar o‘rganilgan. “Malikai ayyor” dostonidagi eng faol so‘zlar, “Orzigul” dostonidagi yuqori chastotaga ega bo‘lgan so‘zlar, Kuntug‘mish” dostoni kalit so‘zlar faol qismlari o‘rganilgan. Mazkur maqolada yana Sketch Engine korpus menejeri yordamida amalga oshirilgan ishlar xususida ma‘lumotlar berilgan.

## Лингвистический анализ на основе частотного словаря эпосов «Маликай айёр», «Кунтугмиш», «Орзигуль»

### АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**


интерфейс корпуса эпосов «Маликай айёр», «Орзигуль», «Кунтугмиш», созданный в корпусном менеджере Sketch Engine; объем корпуса эпосов «Маликай айёр», «Орзигуль», «Кунтугмиш», созданный в корпусном менеджере Sketch Engine; объем корпуса эпосов «Маликай айёр», «Орзигуль», «Кунтугмиш», созданный в специально разработанном корпусном менеджере для поэтических текстов узбекского языка,

В данной статье проводится лингвостатистический анализ на основе частотного словаря эпосов «Маликай айёр», «Кунтугмиш» и «Орзигуль». Кроме того, представлена информация о создании этого словаря с использованием программы WordSmith Tool и её возможностях. Рассматриваются такие вопросы, как роль функции «Ключевые слова» в выявлении значимых лексем в корпусе текстов. Проведён анализ наиболее активных слов в эпосе «Маликай айёр», слов с высокой частотностью в эпосе «Орзигуль», а также ключевых элементов в эпосе «Кунтугмиш». Дополнительно в статье представлено описание работы, выполненной с использованием кейс-менеджера Sketch Engine.

активная часть ключевых слов эпоса «Маликаи айёр»,  
активная часть ключевых слов эпоса «Кунтугмиш»,  
активная часть ключевых слов эпоса «Орзигул».

Ma’lum bir matn asosida chastotali lug’at yaratish usul, metodika, an’ana va dasturlarining ko’plab turlari mavjud. Xuddi shunday chastotali tahlilni xalq dostonlari matni ustida amalga oshirish mumkin. Buning uchun dastlab chastotali lug’at shakllantirish talab etiladi. Oldingi qismda WordSmith Tool dasturi yordamida chastotali lug’at yaratish va lingvostatistik tahlil olib borish, mazkur dasturiy vositaning imkoniyatlari masalasiga to’xtalgandik. Mazkur qismda Sketch Engine korpus menejeri yordamida har bir doston matnining chastotali lug’atini yaratish va shu asosda lingvostatistik tahlil olib borish imkoniyatlari va samaradorligi haqida to’xtalamiz.

Sketch Engine korpus menejeri yordamida yaxlit interfeysga ega bo’lgan, ammo har bir dostonning matniasosidagi alohida korpus shakllantirildi (Qarang: 1-rasm),



**1-rasm. Sketch Engine korpus menejerida yaratilgan “Malikayi ayyor”, “Orzigul”, “Kuntug’mish” dostonlari korpusi interfeysi**

1-rasmdan ko’rinib turibdiki, har bir dostonning so’z miqdori alohida ajratib berilgan (Qarang: 1-jadval):

**1-jadval.**

**Sketch Engine korpus menejerida yaratilgan “Malikayi ayyor”, “Orzigul”, “Kuntug’mish” dostonlari korpusi hajmi**

Korpus nomi	Hajmi
“Malikayi ayyor” dostoni korpusi	50 697 token
“Orzigul” dostoni korpusi	27 270 token
“Kuntug’mish” dostoni korpusi	31 290 token

O'zbek tili poetik matnlari uchun maxsus yaratilgan korpus menejerida yaratilgan chastotali lug'atlarni hajmi quyidagicha (Qarang 2-jadval):

**2-jadval.**

**O'zbek tili poetik matnlari uchun maxsus yaratilgan korpus menejerida yaratilgan "Malikayi ayyor", "Orzigul", "Kuntug'mish" dostonlari korpusi hajmi**

Korpus nomi	Hajmi	
	So'zshakl soni	Unikal so'zlar (lemma) soni
"Malikayi ayyor" dostoni korpusi		
"Orzigul" dostoni korpusi		
"Kuntug'mish" dostoni korpusi	26212	7724

Sketch Engine korpus menejerida "Wordlist", ya'ni so'zshakllar ro'yxati funksiyasida barcha so'zlar so'rovi yaxshi natija bermadi: so'zshakl emas, tokenlar ajratildi, tinish belgilar, so'zning ayrim qismlarini alohida so'z sifatida tanidi. Demak, mazkur dasturiy vositaning o'zbek tilidagi so'zlarni tanib olishidagi samaradorligi yuqori emas. Ammo bu korpus menejerining "Wordlist" funksiyasida "so'zning tugash shakli", "so'zning boshlanish shakli", "so'zning tarkibida ma'lum qism shakli" so'rovi orqali qiziqarli qidiruvlarni amalga oshirish hamda yaxshi natijalar olish mumkin. Korpus menejerining mazkur funksiyasidan uchala doston korpusidan qiyosiy tahlillar amalga oshiramiz.

"Keywords" funksiyasi esa mazkur korpusdagi kalit so'zlarni aniqlashda yordam beradi. Bunda korpus so'zning yuqori chastotasiga tayanadi va 100 ta eng yuqori chastotali so'zni kalit so'z sifatida ajratib oladi. Quyida har bir dostonning kalit so'zlarini tahlil qilamiz. "Malikayi ayyor" dostonida quyidagi so'zlar yuqori chastotaga ega bo'lib, kalit so'z sifatida ajratildi (Qarang: 3-jadval).

**3-jadval.**

**"Malikayi ayyor" dostoni kalit so'zlari faol qismi**

So'z	Frequency (focus)	Frequency (reference)	Relative frequency (focus)	Relative frequency (reference)	Score
1	2	3	4	5	6
shoqalandar	202	0	2775,03027	0	2776,03
devlar	251	6	3448,18115	0,2442	2772,22
shozargar	131	0	1799,64832	0	1800,65
avazxon	141	11	1937,026	0,44769	1338,7
qalandar	246	40	3379,49219	1,62797	1286,35
devlarning	84	1	1153,97302	0,0407	1109,81
boymoq	76	0	1044,0708	0	1045,07
avazjon	97	7	1332,56396	0,28489	1037,88
qalandarlar	72	2	989,11969	0,0814	915,592
devning	69	2	947,90637	0,0814	877,481

beklar	129	27	1772,17273	1,09888	844,819
tillaqiz	60	0	824,26642	0	825,266
dev	121	29	1662,27063	1,18028	762,871
torkiston	55	0	755,57751	0	756,578
chambil	75	9	1030,33301	0,36629	754,84
merganlar	55	2	755,57751	0,0814	699,629
tulpor	78	21	1071,54626	0,85468	578,291
malikani	66	14	906,69305	0,56979	578,226
irko	39	2	535,77313	0,0814	496,369
kanizlar	37	1	508,29761	0,0407	489,38
juring	34	0	467,08429	0	468,084

3-jadvalda ko‘rinib turganidek, 2-3-4-5-6-ustunlardagi hisob kitoblar ma‘lum bir so‘zning qo‘llanish chastotasini hisoblash asosida avtomatik ravishda kalit so‘zlarni aniqlashga yordam beradi. Shundan ma‘lum bo‘ladiki, “Malikayi ayyor” dostonidagi eng faol so‘zlardan 20 tasi quyidagi so‘zshakllardir: *Shoqalandar, devlar, devlarning, Shozargar, Avazxon, Avazjon, qalandar, qalandarlar, boymoq, devning, beklar, tillaqiz, dev, Torkiston, chambil, merganlar, tulpor, malikani, kanizlar* (100 ta kalit so‘zni to‘liq ko‘rish uchun 3-ildovaga qarang).

“Kuntug‘mish” dostonida quyidagi so‘zlar yuqori chastotaga ega bo‘lib, kalit so‘z sifatida ajratildi (Qarang: xx-jadval). Mazkur jadvalda xato so‘zlarni o‘zimiz ajratib ko‘rsatamiz. Bu so‘zlarda xatolikning hosil bo‘lishi dasturning **o‘, g‘** harflarini tanimasligi bilan bog‘liq.

#### 4-jadval.

#### “Kuntug‘mish” dostoni kalit so‘zlari faol qismi

Item	Frequency (focus)	Frequency (reference)	Relative frequency (focus)	Relative frequency (reference)	Score
xolbeka	169	3	3739,10352	0,1221	3333,14
mohiboy	63	0	1393,86694	0	1394,87
Erkiboy	61	0	1349,61719	0	1350,62
xolbekaning	50	0	1106,24365	0	1107,24
azbarxo	32	0	707,99591	0	708,996
xolbekani	26	0	575,2467	0	576,247
<b>kuntug</b>	52	26	1150,49341	1,05818	559,472
zangar	24	0	530,99695	0	531,997
zamongul	21	0	464,62231	0	465,622
qaydin	21	1	464,62231	0,0407	447,413
bachchalar	20	0	442,49747	0	443,497
ichinda	24	5	530,99695	0,2035	442,043
alqissa	27	11	597,37158	0,44769	413,328
ikkovi	34	23	752,24567	0,93608	389,057

yingdan	17	0	376,12283	0	377,123
ayrildim	25	12	553,12183	0,48839	372,296
buvushim	16	0	353,99796	0	354,998
anda	38	36	840,74518	1,46517	341,455
dastingdan	16	1	353,99796	0,0407	341,115
jallodlar	16	1	353,99796	0,0407	341,115
xolbekaga	15	0	331,87308	0	332,873
aylanglar	15	0	331,87308	0	332,873
xolbekadan	15	0	331,87308	0	332,873
aylayin	15	1	331,87308	0,0407	319,855
<b>raining</b>	26	21	575,2467	0,85468	310,698
<b>bachchag</b>	15	2	331,87308	0,0814	307,817

Bu jadvalda avtomatik ravishda hosil bo'lgan ro'yxatni qo'lda tahlil qilamiz. 4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, "Kuntug'mish" dostonida eng faol so'z yoki yuqori chastotaga ega birliklar sifatida *Xolbeka, Xolbekaning, Xolbekani, Xolbekaga, Xolbekadan, Kuntug'mish, Mohiboy, Erkiboy, Zamongul* (shaxs nomlari), *Zangar* (joy nomi) kabi atoqli otlar; *jallodlar, bachchalar, buvushim, dastingdan, azbarxo, ichinda* kabi turdosh otlar, *aylanglar, aylayin, ayrildim* kabi fe'llar; *anda, qaydin* olmoshlar; *alqissa, ikkovi* kabi boshqa turkumga mansub so'zlar yuqori chastotali so'z, ya'ni kalit so'zlardir (100 ta kalit so'zni to'liq ko'rish uchun **xx-ilovaga** qarang).

"Orzigul" dostonida quyidagi so'zlar yuqori chastotaga ega bo'lib, kalit so'z sifatida ajratildi (Qarang: 5-jadval).

#### 5-jadval.

#### "Orzigul" dostoni kalit so'zlari faol qismi

Item	Frequency (focus)	Frequency (reference)	Relative frequency (focus)	Relative frequency (reference)	Score
orzigul	195	11	4915,30566	0,44769	3395,96
suvonxon	126	0	3176,04346	0	3177,04
suvon	98	16	2470,2561	0,65119	1496,65
orzigulning	49	0	1235,12805	0	1236,13
suvonning	48	0	1209,92139	0	1210,92
sultonxon	40	2	1008,26782	0,0814	933,299
suvonxonning	31	0	781,40753	0	782,408
ernazar	41	13	1033,47449	0,52909	676,53
orzigulga	25	0	630,16736	0	631,167
dilmurodni	25	0	630,16736	0	631,167
beklar	52	27	1310,74817	1,09888	624,976
olloyor	55	31	1386,36816	1,26167	613,425
orzigulni	24	0	604,96069	0	605,961
qoraxon	33	12	831,82092	0,48839	559,545
barnogul	21	0	529,34058	0	530,341



oqtosh	66	53	1663,64185	2,15706	527,276
qushqanot	20	0	504,13391	0	505,134
sultonim	18	2	453,72052	0,0814	420,493
oqtoshga	15	0	378,10043	0	379,1
oqtoshning	15	0	378,10043	0	379,1
suvonxonga	15	0	378,10043	0	379,1
olloyorning	19	8	478,92722	0,32559	362,047
olloyorni	14	0	352,89374	0	353,894
moma	14	0	352,89374	0	353,894
suvonxonni	14	0	352,89374	0	353,894
shoqalandar	12	0	302,48035	0	303,48
podshoga	16	9	403,30713	0,36629	295,915
suvonjon	12	1	302,48035	0,0407	291,612
dilmurodning	13	4	327,68704	0,1628	282,669
kanizlar	11	1	277,27365	0,0407	267,391
olloyorga	11	1	277,27365	0,0407	267,391
yoring	11	1	277,27365	0,0407	267,391
qushqanotning	10	0	252,06696	0	253,067
enasi	12	5	302,48035	0,2035	252,166
enajon	12	5	302,48035	0,2035	252,166
podshoning	25	38	630,16736	1,54657	247,85
orzi	10	1	252,06696	0,0407	243,17
boylab	15	15	378,10043	0,61049	235,395
kelgin	13	10	327,68704	0,40699	233,61
xosxona	9	0	226,86026	0	227,86
omonmi	9	0	226,86026	0	227,86
suvonni	9	0	226,86026	0	227,86
kelayin	9	1	226,86026	0,0407	218,949
podsho	67	170	1688,84851	6,91886	213,395
xosxonaga	8	0	201,65356	0	202,654
qochdi	14	23	352,89374	0,93608	182,789
eliga	13	20	327,68704	0,81398	181,196
yuzli	13	20	327,68704	0,81398	181,196
choshka	7	0	176,44687	0	177,447
omonoy	7	0	176,44687	0	177,447
dol	13	21	327,68704	0,85468	177,22
otini	20	48	504,13391	1,95356	171,025
dorga	11	18	277,27365	0,73259	160,612
otni	23	65	579,75397	2,64545	159,309
lashkar	17	42	428,51382	1,70937	158,529
berayin	7	3	176,44687	0,1221	158,139
oqqiz	7	3	176,44687	0,1221	158,139
qilayin	7	3	176,44687	0,1221	158,139
tillani	7	3	176,44687	0,1221	158,139
ketaverdi	8	7	201,65356	0,28489	157,72

olgin	8	7	201,65356	0,28489	157,72
omon-eson	10	15	252,06696	0,61049	157,137
beliga	12	23	302,48035	0,93608	156,75
otiga	13	27	327,68704	1,09888	156,601
otdan	13	27	327,68704	1,09888	156,601

Mazkur soʻzlarni turkumi va maʼnoviy guruhiga koʻra quyidagicha tasniflash mumkin (Qarang: 6-jadval). Jadvaldagi soʻzlar tahlilidan maʼlum boʻladiki, doston matnida yuqori chastotali soʻzlar sifatida bosh qahramon nomlari ajratildi, shuningdek, sharsa otlari orasidan eng yuqori chastoatga ega soʻz “ot” soʻzidir. Demak, asarda ot oʻziga xos badiiy yuk tashiydi. Bu kabi badiiy asarda detal darajasiga koʻtarilgan prejmetlarni statistik usulda aniqlash mumkin.

**6-jadval.**

**“Orzigul” dostoni kalit soʻzlari leksik-grammatik guruhi**

Shaxs/ joy nomi	Shaxs oti	Narsa oti	belgi	harakat	holat
Barnogul	beklar	beliga	omon	berayin	choshka
Dilmurod	enasi	dol	tillani	boylab	omon-eson
Dilmurod	kanizlar	dorga	yuzli	kelayin	
Enajon	lashkar	eliga		kelgin	
Olloyor	moma	xosxona		ketaverdi	
Oqqiz	podsho	xosxonaga		olgin	
Orzigul	podshoga	orzi		qilayin	
Qoraxon	podshoning	otdan		qochdi	
Qushqanot	sultonim	otiga			
Shoqalandar	yoring	otini			
Sultonxon		otni			
Suvonxon					
Ernazar					
Omonoy					
Oqtosh					

Mazkur tahlilni Sketch Engine korpus menejeri yordamida amalga oshirdik. Quyida mazkur uch doston matni uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturda tayyorlangan chastotali lugʻatdagi soʻzlarni tahlilga tortamiz.

“Kuntugʻmish” dostoni matni asosida shakllantirilgan alifboli chastotali lugʻatdan maʼlum boʻladiki, mazkur asarda jami soʻzlar (soʻzshakl) soni: 26212, unikal (takrorlanmas) soʻzlar 7724 tani tashkil etadi.

“Malikayi ayyor” dostoni matni asosida shakllantirilgan alifboli chastotali lugʻatdan maʼlum boʻladiki, mazkur asarda jami soʻzlar (soʻzshakl) soni: 26212, unikal (takrorlanmas) soʻzlar 7724 tani tashkil etadi.

“Orzigul” dostoni matni asosida shakllantirilgan alifboli chastotali lugʻatdan maʼlum boʻladiki, mazkur asarda jami soʻzlar (soʻzshakl) soni: 26212, unikal (takrorlanmas) soʻzlar 7724 tani tashkil etadi.

Quyida mazkur dostonlardagi yuqori chastotali dastlabki 50 soʻzni keltiramiz va ularning tarkibini solishtiramiz (Qarang: 7-jadval).



**O‘zbek tili poetik matnlari maxsus korpus menejeri vositasida yaratilgan “Malikayi ayyor”, “Orzigul”, “Kuntug‘mish” dostonlari chastotali lug‘atlaridagi eng yuqori chastotali so‘zlar**

“Kuntug‘mish”	“Malikayi ayyor”	“Orzigul”
bir 477	bu 731	bir 418
deb 409	bir 524	dedi 269
edi 247	deb 478	deb 262
shu 201	bo‘lib 457	bu 218
bilan 205	bilan 360	men 211
xolbeka 169	ham 287	orzigul 195
bo‘lib 170	qalandar 246	bilan 167
bu 174	dedi 211	so‘z 153
olib 166	olib 236	shunda 132
ham 165	qilib 248	suvonxon 126
qilib 130	aytdi 133	shu 119
ikki 179	endi 281	qarab 116
kelib 101	men 168	olib 114
men 121	qarab 165	ham 110
to‘ra 95	shunda 175	endi 104
aytdi 101	edi 172	suvon 98
dedi 99	avaz 129	bo‘ldi 87
so‘z 95	avazxon 140	bo‘lib 86
bo‘ldi 109	ekan 127	ekan 77
ekan 87	sen 141	kelib 77
bor 75	so‘zni 116	edi 71
xolbekaning 50	ko‘rib 159	uch 70
berdi 77	malika 149	kun 69
endi 69	bo‘ldi 155	qilib 69
har 88	bo‘lsa 134	mening 68
shahzoda 57	avazjon 97	podsho 68
yo‘q 83	bor 108	bo‘lsa 67
qarab 70	har 152	menga 67
bo‘lsa 61	kelib 127	keldi 66
yo‘l 52	borib 120	oqtosh 66
borib 62	qoldi 139	borib 63
mard 51	devlar 251	ikki 63
oyim 42	ko‘p 172	ot 59
to‘ram 30	so‘z 99	bor 58
hech 45	shu 125	qirq 57
ko‘p 67	mening 124	olloyor 55
mening 55	dev 123	bo‘lsin 54
bo‘lsin 38	birga 112	bolam 54
chiqib 54	ketdi 109	har 54
podsho 58	shunday 114	va 54
qoldi 51	turibdi 84	ko‘p 53
turibdi 42	yo‘l 108	beklar 52
kelgan 32	eshitib 73	sen 51
ketdi 51	chambil 81	orzigulning 49
meni 49	go‘ro‘g‘li 93	hech 48
sen 57	berdi 100	qildi 48

sening 32 kun 49 ne 37 odam 45 senga 38	shoqalandar 202 shozargar 134 aytib 75 yo'q 79	suvonning 48 bobo 47 qoshiga 47 dilmurod 46
---	---	--

E'tibor qaratisa, uch doston matnida ham eng yuqori chastotali so'zlar olmosh, son, ko'makchi, bog'lovchi, dedi, deb kabi fe'l turkumiga mansub so'zlar tashkil etadi. Bu kabi so'zlar yuqori chastotaga ega bo'lsa-da, asar matning semantik yadrosini tashkil etmaydi va asar uchun ahamiyatga ega bo'lgan, poetik yuk tashiydigan so'zlar sanalmaydi. Demak, faqat chastotali lug'atning o'zi asar matnidagi lingvopoetik bo'yoqdorlikka ega so'zlarni ajratib olishga asos bo'lolmaydi, shakllantirilgan chastotali lug'at yana bir bosqichli tahlildan o'tishi lozim. Quyida uch dostonning yuqori chastotali so'zlari ichidan har bir asar uchun ahamiyatli uchun ahamiyatli bo'lgan so'zlarni qo'lda ajratib olamiz hamda ularni leksik-grammatik jihatdan guruhlashtiramiz.

### 8-jadval.

#### “Malikayi ayyor”, “Orzigul”, “Kuntug'mish” dostonlari chastotali lug'atlaridagi yuqori chastotali so'zlarning leksik-grammatik tasnifi

Leksik-grammatik guruh	“Kuntug'mish”	“Malikayi ayyor”	“Orzigul”
Atoqli ot (shaxs nomi)	Xolbeka 169 Xolbekaning 50	Avaz 129 Avazxon 140 Avazjon 97 Go'ro'g'li 93 Shoqalandar 202 Shozargar 134	Orzigul 195 Suvonxon 126 Suvon 98 Olloyor 55 Orzigulning 49 Suvonning 48 Dilmurod 46
Atoqli ot (joy nomi)		Chambil 81	Oqtosh 66
Shaxs oti	podsho 58 to'ram 30 oyim 42 odam 45 to'ra 95 shahzoda 57	qalandar 246 malika 149	bobo 47 podsho 68 beklar 52 bolam 54
Narsa oti	so'z 95 yo'l 52 kun 49	so'zni 116 yo'l 108 so'z 99	so'z 153 kun 69 ot 59 qoshiga 47
Mavhum ot		devlar 251 dev 123	
belgi	mard 51		
miqdor	ikki 179 ko'p 67	bir 524 ko'p 172	bir 418 uch 70 ikki 63 qirq 57 ko'p 53
payt	endi 69	endi 281	endi 104
holat		birga 112	

harakat	bo'lib 170 olib 166 qilib 130 kelib 101 aytdi 101 dedi 99 bo'ldi 109 ekan 87 berdi 77 qarab 70 bo'lsa 61 borib 62 bo'lsin 38 chiqib 54 qoldi 51 turibdi 42 kelgan 32 ketdi 51	deb 478 bo'lib 457 dedi 211 olib 236 qilib 248 aytdi 133 qarab 165 edi 172 ko'rib 159 bo'ldi 155 bo'lsa 134 kelib 127 borib 120 qoldi 139 ketdi 109 turibdi 84 eshitib 73 berdi 100 aytib 75	dedi 269 deb 262 qarab 116 olib 114 bo'ldi 87 bo'lib 86 ekan 77 kelib 77 edi 71 qilib 69 bo'lsa 67 borib 63 keldi 66 bo'lsin 54 qildi 48
olmosh	bu 174 men 121 har 88 hech 45 mening 55 meni 49 sen 57 sening 32 ne 37 senga 38	bu 731 men 168 shunda 175 sen 141 har 152 shu 125 mening 124 shunday 114	bu 218 men 211 shunda 132 shu 119 ham 110 mening 68 menga 67 har 54 sen 51 hech 48
Yordamchi so'zlar	ham 165 bor 75 yo'q 83	bilan 360 ham 287 ekan 127 bor 108 yo'q 79	bilan 167 bor 58 va 54

8-jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir doston matnida leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra yuqori chastotali so'zlarning miqdori har xil. xx-jadvaldagi ma'lumotlarga tayanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

*birinchidan*, barcha dostonlarda ham asar qahramonlari bir xil chastotaga ega emas: ayrim dostonlarda qahramonlar ko'p tilga olinsa, ayrimlarining qo'llanish chastotasi yuqori emas;

*ikkinchidan*, asardagi joy nomlari boshqa so'zlarga nisbatan qo'p qo'llanilmaydi;

*uchinchidan*, barcha dostonlarning matnida fe'l turkumiga oid – harkatni bildiruvchi so'zlar faol qo'llanadi;

*to'rtinchidan*, qo'llanilishchastotasining yuqoriligi bilan fe'ldan keyingi o'rinda turuvchi turkum olmoshdir;

*beshinchidan*, *payt*, *holat*, *miqdor*, *belgi* ma'nolarini bildiruvchi so'zlar quyi chastotaga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xamrayeva Sh. Til korpusining leksikografik ahamiyati // O<sub>z</sub>MU, – Toshkent, 2017.
2. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T., 2011
3. Недовшина Е.В. Программа для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Работа с системой DDC // Языковая инженерия: в поиске смыслов. (электронный ресурс).
4. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – СПб: БИ, 2005. – С. 48.
5. Плунгян В. Зачем мы делаем корпусы? // [www.ruscorpora.ru](http://www.ruscorpora.ru)